

TARAQQIYOT TADQIQOTLARI: BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

ИССЛЕДОВАНИЯ РАЗВИТИЯ: ПЕРСПЕКТИВЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ

DEVELOPMENT STUDIES: PERSPECTIVES ON SUSTAINABLE DEVELOPMENT

NOMAMADOVA Yulduz

*O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
magistranti*

ZAMONAVIY OAV TUZILMASIDA AXBOROT AGENTLIKLARINING FAOLIYATI

ANNOTATSIYA

Hozirgi kunda axborotlashgan jamiyatda online ommaviy axborot vositalari rivojlantirish va zamonaviy axborot vositalarida ma'lumotlarni amalga oshirish uchun zamonaviy axborot agentliklaridan foydalanish usullari, shuningdek, ularning ommaviy kommunikatsiya doirasidagi faoliyatini qayta tashkil etishi va kommunikator sifatida o'z ta'sirini namoyon qilishi xususida so'z boradi. Shu jumladan, internet jurnalistikasiga bo'lgan talab va yurtimizda bu sohaga qaratilgan e'tibor haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: agentlik tuzilmalar, axborotlashgan jamiyat, media materiallar, tamoyillar deklaratsiyasi, mediamakon.

ACTIVITY OF INFORMATION AGENCIES IN MODERN MEDIA STRUCTURE

ANNOTATIN

In the information society, the methods of using popular media platforms for the development of online mass media and the implementation of information in modern media are discussed, as well as the reorganization of relations within the framework of mass communication and the manifestation of its influence as a communicator. Including information about the demand for Internet journalism and the current attention to this field in our country.

Key words: agency structures, information society, media materials, Declaration of principles, media space.

Internet jurnalistika eng tezkor OAV sifatida matbuot, radio, televidenie imkoniyatlarini o'zida jamlamoqda. Shu bilan bir qatorda hozirgi kunda axborot agentliklari kundan-kunga rivojlanib yanada OAV tizimida katta ahamiyat kasb etmoqda. Endi siz biron axborot bilan tanishish uchun gazeta chop etilishini, TV yoki radioda yangiliklar dasturi boshlanishini kutib o'tirmaysiz. Eng katta internet-nashrlari matn, foto, tasvir, ovoz, infografika kabi elementlardan foydalanib, xabarlarini interaktiv tarzda yetkazmoqda. Internet-radio va Internet-televidenie yo'nalishi ham jadallik bilan rivojlanmoqda.

Ilmiy asoslar: So'z va axborot erkinligi, davlat organlari va boshqa tashkilotlar faoliyatining ochiqqligini ta'minlash - Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining asosiy vazifalaridan. O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2 fevraldagi farmoni bilan O'zbekiston matbuot va axborot agentligi negizida prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tashkil etilgani haqida xabar qilingan edi. Yangi tashkil etilgan agentlikning asosiy vazifalari quyidagilar iborat etib belgilandi. Fuqarolarning so'z va axborot erkinligiga doir konstitutsiyaviy huquqlarining ro'yobga chiqishini ta'minlash, mamlakatni ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy rivojlantirishda OAVning rolini kuchaytirish, media-bozorda ular uchun teng sharoitlar yaratish, shuningdek, jurnalistlar huquqlarini himoya qilish;

OAV, matbuot, noshirlik-matbaa va axborot-kutubxona faoliyatining rivojlanishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirishni ta'minlash, shuningdek, investitsiyalar jalb etish va davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida loyihalarni amalga oshirish uchun qulay shart-sharoitlarni shakllantirish;

- axborot sohasidagi qonun hujjatlarini qo'llash amaliyotini umumlashtirish, OAV, matbuot, noshirlik-matbaa va axborot-kutubxona faoliyatining rivojlanishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ilgari surish va ishlab chiqish;

- davlat organlari va boshqa tashkilotlarga ular faoliyatining ochiqligini ta'minlashda, davlat xizmatchilariga OAV bilan ochiq, ommaviy o'zaro hamkorlik qilish madaniyatini singdirishda, shu jumladan, ularning matbuot xizmatlari (jamoatchilik bilan ishlash bo'yicha bo'linmalari) faoliyatini muvofiqlashtirish va uslubiy jihatdan ta'minlash orqali ko'maklashish;

- mamlakatda amalga oshirilayotgan keng miqyosli islohotlarni, investitsiyalar kiritish va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash uchun yaratilgan qulay sharoitlarni, avvalo, xorijiy ishbilarmon doiralar, tadbirkorlar, salohiyatli investorlar, davlat va jamoat arboblari orasida targ'ib etish va keng xabardor qilish masalalarida davlat organlari va boshqa tashkilotlar, shuningdek, O'zbekistonning xorijdagi diplomatik vakolatxonalarini bilan o'zaro hamkorlik qilish;

- kitob nashr etish, elektron va audio kitoblar yaratish, kitob mutolaasi madaniyatini oshirish, xorijda o'zbek adabiyotini ommalashtirish sohasida dasturiy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ularning amalga oshirilishini ta'minlash;

- jurnalistlar hamda OAV, matbuot, noshirlik-matbaa va axborot-kutubxona korxonalarini xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, shuningdek, tarmoqning muhandislik-texnik mutaxassislarini tayyorlashda ko'maklashish, ularning ijtimoiy va huquqiy himoyasini ta'minlash;

- Respublika axborot xavfsizligini ta'minlashda ishtirok etish hamda axborot sohasidagi xatar va tahdidlarga qarshi o'z vaqtida va munosib ravishda kurashish choralarini ko'rish.

Farmon bilan Toshkent matbaa-noshirlik kasb-hunar kolleji nomi Noshirlik-matbaa faoliyati sohasida mutaxassislarini tayyorlash kasb-hunar kollejiga o'zgartirilgan holda agentlik tasarrufiga o'tkazish belgilandi.

Agentlik negizida tashkil etilayotgan axborot sohasi va ommaviy kommunikatsiyalarni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga Davlat byudjetidan 20 milliard so'm miqdorida bir marta ajratiladigan mablag'lar ajratish belgilandi. Ushbu jamg'arma Agentlikka idoraviy mansub nashriyotlar va matbaa korxonalarining mahsulotlarini sotishdan tushadigan sof tushumning 10 foizi miqdorida shartnoma asosidagi ajratmalardan shakllantiriladigan mablag'lar ham tushirib boriladi.

Jamg'arma mablag'lari davlat va nodavlat OAVni rivojlantirishni rag'batlantirish va ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlash, xorijda O'zbekistonning ijobiy imijini targ'ib etish, axborot kampaniyalarini o'tkazish, jurnalistlar hamda OAV, matbuot, noshirlik-matbaa korxonalarini va axborot-kutubxona muassasalari xodimlarini, shu jumladan, mamlakatdan va xorijdan mutaxassislar jalb etish, xorijda o'quv stajirovkalarini tashkil etish orqali tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tadbirlarini moliyalashtirish kabi ishlarga sarflanadi.

Prezident farmoni bilan xuddi shu kuni «Ko'zi ojizlar bosmaxonasi» korxonasi bosmaxona uskunalarini modernizatsiya qilish, bino va ishlab chiqarish inshootlarini ta'mirlash bo'yicha «Ko'ngil ko'zi» loyihasini amalga oshirish yuzasidan «yo'l xaritasi» tasdiqlandi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz joizki, axborot agentliklari tashkil etilgan davrdan hozirgacha juda ko'plab o'zgarishlar sodir bo'ldi va ular yanada takomillashib o'zgarib kelmoqda. Chunki hozirgi kunda nafaqat butun dunyoda balki yurtimizda ham onlayn ommaviy axborot vositalariga bo'lgan talab ortib bormoqda shu sababli bu singari talablarga javob berish maqsadida zamonaviy mediamakonda o'z o'rniga ega bo'lish lozim. Aynan.OAV tizimida axborot agentliklarini rivojlantirish, shu sohada faoliyat olib boruvchi kadrlarni salohiyatini oshirish orqali auditoryaning qiziqishini uyg'otish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Medoff, Norman J. Electronic Media: Then, Now, and Later (en). Taylor & Francis, 2013-03-20. ISBN 978-1-136-03041-3.
2. Tandoc, Edson C. The facts of fake news: A research review. // Oxford: Wiley, 2007. - 2019. Joshua
3. Yangi ommaviy axborot vositalari jurnalistikani qanday o'zgartirdi: 2012 - 2016" Aleksandr Amzin, Artem Galustian, Vasiliy Gatov, Manuel Kastels
4. <https://m.kun.uz/news/2023/10/12/ozbek-segmentidagi-internet-jurnalistikasi-soha-qanday-rivojlandi-va-kelajakda-nima-kutiladi>
5. <https://anticorruption.uz/oz/article/oav-va-ijtimoiy-tarmoqlarda-onlayn-mahalla-elektron-platformasini-yaratish-yuzasidan-elon-qilingan-materiallar-yuzasidan>